

**MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI
O'QITISH METODIKASI**

Andijon Davlat Chet tillari instituti

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti

112-guruh talabasi Solijonova Rayyona

Ingliz tili nazariy aspektlar kafedrasи

o'qituvchisi Xamidov Nodirbek

Annotatsiya: Mazkur maqola O'zbekiston ta'lif tizimining maktabgacha ta'lif muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodlarini, samarali uslublarini va yondashuvlarini ko'rib chiqadi. Shuningdek, kommunikativ metodlar, o'yin texnologiyalari va vizual vositalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarga tilni o'rgatish samaradorligi masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Nazariy va amaliy metodlar, qulay atmosfera, vizual materiallar, kognitiv rivojlanish, drammatsiyalashtirilgan teatrlar, innovatsion texnologiyalar, multimedia materiallari, interaktiv doskalar, individual xususiyatlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы, эффективные методы, преподавания английского языка в дошкольных учреждениях системы образования Узбекистана. Также будет освещена эффективность обучения языку детей дошкольного возраста с помощью коммуникативных методов, игровых технологий и визуальных средств.

Ключевые слова: Теоретические и практические методы, комфортная атмосфера, наглядные материалы, познавательное развитие, драматические театры, инновационные технологии, мультимедийные материалы, интерактивные доски, индивидуальные особенности.

Annotation: This article examines the methods, effective methods and approaches of teaching English in preschool educational institutions of the educational system of Uzbekistan. Also, the effectiveness of language teaching to

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

preschool children through communicative methods, game technologies and visual tools will be highlighted.

Key words:*Theoretical and practical methods, comfortable atmosphere, visual materials, cognitive development, dramatized theaters, innovative technologies, multimedia materials, interactive boards, individual characteristics.*

Globallashuv jarayonida, chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini bilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ingliz tili xalqaro muloqot, zamonaviy texnologiyalar va ilm-fanning asosi, muhim vositasiga aylangan. Bu tilni bilish hozirda dolzarb masalalardan biriga aylanib, atrofimizdagi yoshlardan tortib kattalargacha ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qizishlarini ko'rishimiz mumkin. Ingliz tilining o'rni nafaqat bizning davlatda, balki xorijning boshqa hududlarida ham muhim rolni egallab turibdi. Eng keng tarqalgan xalqaro muloqot tili sifatida ingliz tilining mavqeい tobora o'sib bormoqda. Yurtimizda ingliz tilini o'qitishga e'tibor kuchaygan va deyarli har bir ta'lim bosqichlarida, muassasalarida ingliz tili fan sifatida o'qitiladi. Maktabgacha ta'lim ham bundan mustasno emas. Aynan, bu tilni kichik yoshdan o'rgatishga e'tibor qaratilgan va maktabgacha ta'limda ham ingliz tili o'rgatiladi.

Maktabgacha davr-bolalarni kashf qilish davri bo'lib ularni faol, ijodkor va kelajakda bilimli, qaysi sohada iqtidori, qiziqishlari mavjudligini bilish mumkin bo'lgan bosqich. Bolalarga kichik yoshdan tilga bo'lgan qiziqishlarini, mehrini va e'tiborini orttirish, kelajakda ham ularning tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini o'sib borishiga yordamlashadi. Tillarni kichik yoshdan o'rganishni boshlagan bolalar, keyinchalik ham boshqa tillarni o'rganishda qiyinchiliklarga kamroq duch keladilar. Eng ahamiyatlisi, kichik yoshdan til o'rganishni boshlagan bolalarga tilni oson o'zlashtirish, ularning muloqot qobiliyatini oshirish va kognitiv rivojlanishni ham oshiradi. Kichik yoshli bolalalarda eslab qolish qobiliyati kuchli bo'lganligi sababli ular tilni yaxshi o'rganisha oladi ammo yoshlarini e'tiborga olsak bu davrda bola tilni tushunib emas, balki mexanik tarzda o'rganganlari yaxshiroq bo'ladi. Bolalar bilan ingliz tilida muloqot qilish, ular bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, o'quv materiallarini vizual va o'yinga asoslangan tarzda taqdim etish, samarali

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

natijalarga erishishning asosiy usullaridir.[3:45] Ular uchun dars o'tishda nazariy metodlardan ko'ra amaliy metodlardan foydalangan samaraliroq.Amaliy uslublar orqali bolalar nafaqat tilni o'rganadilar, balki unga qiziqishadi, o'qituvchini tinglashadi, darsni maroqli tarzda o'tkazishadi. Bunday metodlar orqali ularga qulay atmosfera yaratiladi va ta'lim olish foydaliroq bo'ladi. Quyida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun samarali deb hisoblangan metodlar ko'rib chiqiladi:

O'yinlar bilan darslar: O'yinlar- kichik yoshdagi bolalarga , nafaqat tilni balki har qanday turdag'i darslarni o'rgatishda eng foydali va keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi.O'yin metodikasi til o'rgatishning samarali vositalaridan biri sifatida ko'rsatiladi. O'yin orqali bolalar o'zlari uchun qiziqarli va qiyin bo'limgan usullarda tilni o'rganadilar.[2;78] O'yinlar yordamida bolalarda e'tibor, xotira, tafakkur va nutq jarayonlari kuchayadi.Tilni o'rganish jarayoni tabiiy, jonli va qiziqarli kechadi.O'yinlar yordamida deyarli barcha bolalar darsga faol qatnashadilar va mustahkam bilimga ega bo'ladilar.Bolalar uchun o'yin- bu faqat ko'ngilochar faoliyat emas, balki bilim olishning samarali usulidir.[3:56] O'yinlar bolalarning bilim olishi, darslarni qiziqarli va maroqli o'tkazishning usuli va u bolalarga darslarni oson o'rgatish uchun foydalanilishi zarur.O'yinlar bolalar yoshiga mos va xavfsiz holatda bo'lishi va har bir o'yinning o'quv maqsadi aniq bo'lishi lozim. Dars jarayonlarida har xil faoliyatni oshirib berishga mo'ljallangan bo'lishi kerak, o'yinlardan biri gapirish, yana biri tinglash yoki yod olish uchun mo'ljallangan bo'lsa bolalar har tomonlama tilni mustahkam o'rganadilar.Bunday o'yinlarga misol tariqasida: **Simon says**-bolalar uchun ham harakatni tinglab bajarish ham so'zlarni yod olish uchun mo'ljallangan o'yin bo'lib, bolalar o'qituvchi aytgan ishni bajarishadi. "Simon says:touch your nose" – Simon aytdi burningni ushla deyilgandan so'ng bola aytilgan ishni qiladi. **What's missing?**- bolalarga xotirani yaxshilash uchun mo'ljallangan bu o'yin stol ustida bir qancha buyumlar yoki rasmlar tushurilgan kartalar qo'yiladi va bittasi olib qo'yiladi, bola qaysi buyum yoki karta yo'qolganini aytib berishi kerak. Qutining ichiga hayvon yoki mevalarning o'yinchoqlari solinadi va ulardan birini inglizcha nomi aytildi, bolalar esa nomi aytilgan buyumni qutini ichidan topib olishlari kerak.Misol uchun: Find

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

the tiger- bola o'yinchoq yo'lbarsni topishga harakat qiladi va topib ko'rsatishi kerak bo'ladi.

Musiqalar bilan darslar: Musiqalar yordamida darslar ham o'yinlar singari kichik yoshdagи bolalar uchun qiziqarli va oson o'rganishni ta'minlovchi usullardan biri.Qo'shiqlar orqali bola ingliz tilini tinglaydi va birga hirgoya qilish orqali yod oladi, talaffuz qilishni o'rganadi.Musiqa ritmi va takrori so'zlarni eslab qolishni osonlashtiradi.Eng muhim musiqalar bolalarni zeriktirib qo'ymaydi, o'qituvchi ularning diqqatini uzoqroq muddat saqlab qola oladi.Har bir yangi qo'shiq bu yangi lug'at mavzusi hisoblanadi.Bolalar qo'shiq orqali ranglarni, hayvonlarni yoki sonlarni o'rganisha olishadi.Misol uchun oddiy **Alphabet song**-inglizcha alifbo harflarini ketma-ketlik tartibida va tovushlarni o'rgatish uchun mo'ljallangan qo'shiq. **Head, shoulders, knees and toes**-har bir tana a'zolari qo'shiqda aytildi va harakatlar bilan ko'rsatiladi.Bu esa eslab qolishni osonlashtiradi va tana a'zolarini ingliz tilida qo'shiq orqali yod olishga yordam beradi. **Twinkle, twinkle, little star**- oddiy so'z boyligini oshiradi va talaffuz, eshitish qobiliyatlarini rivojlantiradi. **Old MacDonald had a farm**- qo'shiq orqali bolalar hayvonlarni nomlarini va ularning tovushlarini o'rganishadi.Yana **The Wheels on the bus, Bingo song, Rain, rain, go away** kabi musiqalar ham ular jumlasidan.

Rasmlar bilan darslar: Rasmlar o'zida axborotni vizual shaklda jamlaydi. Kichik yoshdagи bolalar hali xayoliy, tasviriy fikrlashga tayyor bo'limganligi uchun ularga ko'rgazmalilik juda muhim.Shuning uchun rasmlar orqali dars o'rgatish oson, qiziqarli va samarali metod hisoblanadi. Bolalar inglizcha so'zlarni bevosita rasmlar orqali tushunishadi.Tarjima uchun ehtiyoj qolmaydi, bu esa to'g'ridan-to'g'ri til o'rganishga zamin yaratadi.Bolalar rasmlar orqali eslab qoladilar, agar ular o'rgangan so'zni yana qayta eshitsalar ular o'sha so'z bilan birga rasmni ko'z oldiga keltirishlari mumkin.Rangli, chiroyli rasmlar bolalarni darsga jalb qiladi, e'tiborini tortadi.Yana bolalar o'zlari rasmlar chizishlari orqali darsga yanada qiziqdilar.O'zlari chizgan rasmlarni ingliz tilida tasvirlab berishlari ularni so'z boyligini oshiradi va o'sha rasm, aynan o'zlari tomonidan chizilgani ularga yanada ko'proq zavq beradi. Misol uchun: rasmda bola quyoshni rasmini chizdi va uni sariq

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

rangda bo'yadi.Bola bu quyosh va u sariq rangda deb aytadi bir rasmida u quyoshni va ranglardan sariq rangni o'rganadi.

Drammatsiyalashtirilgan teatrlar bilan darslar: Sahnalashtirilgan real yoki hayoliy voqealarni tasvirlaydigan materiallardan teatrlar yoki spektakllar bolalar uchun ham maroqli, ham foydali uslublardan biri hisoblanadi.Ularning- Soya teatrlar, Karton teatrlari, stol teatrlari, Qo'g'irchoq teatrlari kabi turlari mavjud. Bolalar o'zlari yoqtirgan ertaklar, hikoyalarini jonli tarzda ingliz tilida tomosha qilishadilar.Bu ularning qiziqshlarini oshiradi va tilni o'rganishni osonlashtiradi.

Innovatsion metodlar va zamonaviy texnologiyalar bilan darslar:Zamonaviy pedagogikada ingliz tilini o'rgatishda innovatsion metodlar va texnologiyalarni joriy etish samarali natijalar beradi. Innovatsion texnologiyalarni, masalan, interaktiv doskalar va multimedia materiallarini qo'llashning bolalar uchun qulayligi ta'kidlab o'tilgan.[1:110]Zamonaviy va yangicha usullarda darslar:
elektron doska orqali- unga yozish, rasm chizish yoki videolar qo'yish mumkin.U orqali bolalar yoqtirgan multfilmlarini yoki ingliz tilini o'rgatuvchi videolar ko'rishlari mumkin.

Bolalarga dars berish jarayonida ularning mavzuni qanday o'zlashtirishiga e'tibor qaratish muhim.Chunki, har bir bolaning xar hil sohaga turlicha iqtidori, qiziqishlari bo'ladi.Dars jarayonida ham kimdir darsni tez qabul qiladi boshqa birov sekinroq.Agar o'sha o'quvchiga e'tibor berilmasa qolgan tengdoshlaridan mavzular bo'yicha ortda qolishiga sabab bo'ladi. Zemchenkova T.V ning fikricha "maktabgacha yoshdag'i bolalar uchun tilni o'rgatishda asosiy e'tibor bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olishga qaratilishi kerak.Bu, o'z navbatida, o'qitish jarayonini yanada samarali qiladi".[3:102] O'qituvchi har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarni bilsa unga mos uslubda dars o'tadi va har bir bola o'ziga mos tarzda rivojlanadi.Bog'cha yoshidagi har bir bola noyob va o'ziga xos.Shuning uchun o'qituvchi ularning individual xususiyatlariga tayangan holda ularga mos tarzda darslar o'tgani ham ularga foydali va samarali, ham o'qituvchi o'zining o'quvchilariga mos darsliklar orqali darsni oson yetkizib bera oladi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdag'i bolalarga ingliz tilini o'rgatish

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ularning aynan hozirgi davridan boshlanishi eng yaxshi va muhim qaror.Ular nafaqat, tillarni qolaversa barcha fanlarni mustahkam o'rganishlari lozim.Ularga ingliz tilini majburan emas o'zlaridagi qiziqishlari, xohish, orqali o'rganishi kerak ekanligini uqturish kerak.Zero siz biror nimaga qiziqib yoki yoqtirib harakat qilsangiz u narsaga ,albatta erishasiz,yo'lingiz qanchalik qiyin, mushkul yoki xatarli bo'lishiga qaramay.Bolalar ham bu narsalarni bilishi zarur, ular olayotgan bilimlari kelajakda o'zlari, yurti uchun muhim ahamiyatga ega.Shuning uchun aytishadi:"Yurtning kelajagi yoshlar qo'lida" deb.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova G. Ingliz tili darslarida innovatsion metodlar.2014
2. Salimov A. Maktabgacha ta'limda chet tillarini o'qitish metodikasi.2015
3. Zemchenkova T.V. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tili.-M,; VAKO,2008